PEDAGOGLARNI YOSHI KATTALARGA XOS O‘QUV EHTIYOJLARI, MOTIVATSIYASI VA TAJRIBASI ASOSIDA SAMARALI KASBIY RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

M.R.Isxakova
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

https://doi.org/10.5281/zenodo.16753317

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola pedagoglarning kasbiy rivojlanishida yangi strategiyalarni talab qilishini va yoshi kattalar uchun ta’lim jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqadi. Mahalliy va xalqaro statistik ma’lumotlar asosida, pedagoglarni o‘qitish bo‘yicha O‘zbekiston va xorijda amalga oshirilayotgan dasturlar va metodologiyalar tahlil etiladi. Pedagoglarning o‘zini rivojlantirish jarayonida foydalanishi mumkin bo‘lgan resurslar va metodlar muhokama qilinadi.

KALIT SO‘ZLAR

kasbiy rivojlanish, o‘quv ehtiyojlar, o‘zini o‘zini rivojlantirish, hamkorlik va guruh ishlari, reflektiv strategiya, tahlil.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается необходимость новых стратегий в профессиональном развитии педагогов, а также особенности образовательного процесса для взрослых. На основе местных и международных статистических данных проводится анализ программ и методик, реализуемых в Узбекистане и за рубежом по обучению педагогов. Обсуждаются ресурсы и методы, которые могут быть использованы педагогами в процессе их

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

профессиональное развитие, образовательные потребности, саморазвитие, сотрудничество и групповая работа, рефлексивная стратегия, анализ.

профессионального самосовершенствования.

ABSTRACT

This article explores the need for new strategies in the professional development of educators and examines the specific characteristics of adult learning processes. Based on local and international statistical data, it analyzes programs and methodologies implemented in Uzbekistan and abroad for teacher training. The article discusses resources and methods that can be utilized by educators in their self-development journey.

KEYWORDS

professional development, learning needs, self-development, collaboration and group work, reflective strategy, analysis.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimining barqaror taraqqiyoti, avvalo, pedagoglarning o‘zini anglash va o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishiga bog‘liqdir. Ta’lim sifati bevosita pedagogning bilim, ko‘nikma, motivatsiya va reflektiv salohiyatiga tayanadi. Shu bois, pedagoglarni pedagogik faoliyatda yoshi kattalarga xos o‘quv ehtiyojlari, motivatsiyasi va tajribasi asosida samarali kasbiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishlari hozirgi davrda dolzarb masalaga aylandi.

Ta’lim tizimining rivojlanishi va pedagoglarning kasbiy o‘sishi jamiyatning muhim omillaridan biridir. Pedagoglar, ayniqsa, yoshi kattalar bilan ishlashda o‘z o‘quv ehtiyojlarini va motivatsiyalarini hisobga olishlari zarur. Ushbu maqolada mahalliy va xalqaro statistik ma’lumotlar asosida pedagoglarni o‘qitish va ularning kasbiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar ko‘rib chiqiladi.

Xalqaro tajribalar, masalan, Finlyandiya va Singapur ta’lim tizimlari pedagoglarning kasbiy rivojlanishidagi muvaffaqiyatlarni ko‘rsatadi.

Finlyandiya ta’lim tizimi pedagoglarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlar bilan tanilgan. Bu yerda pedagoglar o‘z kasbiy rivojlanishlarini mustaqil ravishda rejalashtirishga imkon beruvchi tizim mavjud. Pedagoglar uchun o‘z-o‘zini rivojlantirish dasturlari, amaliyot va tajribalar almashinuvi orqali amalga oshiriladi.

Finlyandiya ta’lim tizimida pedagoglarning 90% dan ortig'i o‘z kasbiy rivojlanishlarini qoniqarli deb baholaydi. Bu muvaffaqiyat, pedagoglarning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiyasi va ularning ta’lim jarayonidagi ishtirokini oshiradi.

Singapur ta’lim tizimida esa pedagoglarning kasbiy rivojlanishi uchun doimiy ravishda malaka oshirish kurslari va seminarlar o‘tkaziladi. Pedagoglar o‘z kasbiy ko‘nikmalarini yangilash va zamonaviy pedagogik usullarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra Singapurda pedagoglarning 85%dan ortig‘i malaka oshirish dasturlarida qatnashadi, bu esa ularning pedagogik faoliyatini yanada samarali amalga oshirishlariga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan islohotlar boshlangan ilk kunlardanoq ***“ilm – tarbiya – innovatsiya”*** zanjirini yaratishga kirishilgani, bu harakatlar bugun aniq natijalar berayotganini qayd etish joiz. Bugungi kunda O‘zbekistonda pedagoglarni o‘qitish va ularning kasbiy rivojlanishi bo‘yicha ko‘plab dasturlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 231-son qarori bilan qabul qilingan 2030-yilgacha maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturida me’yoriy-huquqiy, tashkiliy va o‘quv-metodik bazani takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish, ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish, pedagoglar va mutaxassislarning malaka darajasini oshirishga qaratilgan islohotlar dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Shuningdek, mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, tizimdagi pedagogik kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 867-son qarorida “rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarning kasbiy bilimlari, ko‘nikmalari va mahoratlarini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq ta’lim sifatini ta’minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish” pedagoglarga zamonaviy pedagogik usullarni o‘zlashtirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘quv jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatini beradi.

O‘zbekistonda pedagoglarning kasbiy rivojlanishi bilan bog'liq dasturlarni amalga oshirishda muammolar mavjud. O‘rganilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda o‘zbekistonlik pedagoglarning 65% dan ortig'i o‘zini rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlarga ega emasligini bildirgan, shuningdek, malaka oshirish dasturlarining cheklanganligi va sifatining pastligi, pedagoglar yangi ta’lim metodologiyalari va texnologiyalariga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishayotgani, ayrim moliyaviy cheklovlar (pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga

zarur bo‘lgan resurslar va materiallardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi), xalqaro tajribalarni o‘zlashtirishda va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirishda muammolar mavjudligi, pedagoglarning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida amaliy tajriba almashinuvi va hamkorlikni kuchaytirish zarurligi haqida tahliliy fikrlar mavjud.

Tadqiqotimiz jarayonida aniqlangan ushbu muammolar pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, shuning uchun ularni hal qilish uchun mukammal yondashuv zarur. Buning uchun quyidagi samarali kasbiy rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish lozim:

Malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish maqsadida pedagoglar uchun sifatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish va ularni muntazam ravishda (uzluksiz) o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘lib, bunda ta’limda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan innovatsion metodologiyalarni, masalan, loyiha asosida o‘qitish, muammoni hal qilish, gamifikatsiya, flipped classroom va boshqalarni tanlash va qo`llash, ularni o‘zaro taqqoslash va ularning afzalliklarini ko‘rib chiqish muhimdir.

Shu bilan birga pedagoglarga o‘z ishlarini qulaylashtirishlari uchun innovatsion metodologiyalarni joriy etishda zarur bo‘lgan materiallar, qo‘llanmalar va resurslarni, kerakli texnologiyalarni taqdim etish kerak. Taqdim etilgan metodologiyalarni pedagoglar tomonidan qo‘llanish natijalarini tahlil qilish amaliyotini muntazam ravishda olib borish, olingan natijalar asosida metodologiyalarni takomillashtirish va o‘zgarishlar kiritish innovatsion metodologiyalarni ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli joriy etishga yordam beradi va pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Pedagoglar uchun o‘zini o‘zini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar o‘z-o‘zini rivojlantirishga yordam beradigan onlayn platformalar va resurslar va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish dolzarb bo`lib, statistik ma’lumotlarga ko`ra O‘zbekistonda 2023-yilda pedagoglar uchun o‘z-o‘zini rivojlantirish dasturlari 30% ga oshgan. Bu dasturlar pedagoglarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilash, zamonaviy pedagogik usullarni o‘zlashtirish imkonini beradi.

Mohiyatan pedagogning o‘zini o‘zi rivojlantirishi — bu o‘zining kasbiy, axloqiy va intellektual salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan, mustaqil ravishda amalga oshiriladigan uzluksiz faoliyat. Bu jarayon quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

O‘zini anglash: kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish.

O‘zini anglash — bu shaxsning o‘z xatti-harakatlari, his-tuyg‘ulari, fikrlari va imkoniyatlari haqida ongli ravishda fikr yuritish jarayonidir. Pedagog faoliyatida o‘zini anglash pedagogning o‘zini baholashi, qanday qadriyatlar, motivatsiya va resurslarga ega ekanligini tushunib yetishi bilan bevosita bog‘liqdir. Kuchli

tomonlar — bu shaxsning mahoratli, samarali, muvaffaqiyatga olib boruvchi fazilatlari (masalan, muloqot madaniyati, innovatsion fikrlash, tashabbuskorlik, sabr-toqat, didaktik bilimlar). Zaif tomonlar — rivojlanishi kerak bo‘lgan, faoliyatga salbiy ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan jihatlar (masalan, rejalashtirishdagi sustkashlik, vaqtni boshqara olmaslik, texnologik savodxonlikning pastligi). Ushbu jihatlarni tahlil qilishda ijobiy natija va samara beradigan quyidagi mexanizmlarni taklif qilamiz:

1. O‘z-o‘zini baholash (avtorefleksiya). Pedagog o‘z faoliyatini tahlil qiladi: qanday vazifalarni muvaffaqiyatli bajara olyapman? Qanday vaziyatlarda qiynalaman? Ota-onalar, hamkasblar yoki rahbariyat menga qanday fikr bildiradi? Avtorefleksiyada kunlik yoki haftalik “Refleksiya daftari”ni yuritish, “Men kimman?” yoki “Meni boshqalar qanday ko‘radi?” degan savollarga yozma javoblar tayyorlash ijobiy natijalar beradi.

2. SWOT tahlil usuli orqali tahlil qilish. SWOT tahlili — o‘zini anglash va rivojlantirishda keng qo‘llaniladigan metodik yondashuv. Pedagog quyidagi asosda o‘z faoliyatini tahlil qiladi:

S (Strengths) – Kuchli tomonlar - Ish tajribasi - Yaxshi kommunikatsiya ko‘nikmalari - Rejalashtirish mahorati	***W (Weaknesses) – Zaif tomonlar*** – Texnologik savodxonlik pastligi – Stressni boshqarishda qiynalish – Jamoaviy ishlarda ishtirok sustligi
O (Opportunities) – Imkoniyatlar - Onlayn kurslar orqali rivojlanish - MTTda treninglar	***T (Threats) – Tahdidlar*** – Kasbiy kuyish (burnout) xavfi –Innovatsion talablarga yetishmovchilik

3. “360 daraja tahlil” metodi

“360 daraja tahlil” metodi (yoki “360 baholash”) — bu shaxsiy yoki kasbiy faoliyatni turli tomonlar (rahbar, hamkasb, tarbiyalanuvchi, ota-ona, xatto o‘zi) tomonidan mujassam baholash usuli. “360 daraja tahlil”ning maqsadi pedagogning o‘zini anglashiga yordam berish, faoliyatdagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlash, o‘zini rivojlantirish uchun asosli ma’lumotlar to‘plash hamda subyektiv fikrlarni kamaytirib, xolis baho olishdan iboratdir. Bu metod keng va turli qirrali tahlil qilish imkonini yaratadi.

Pedagogik faoliyatda bu metod orqali bolalarning yoki pedagogning kasbiy kompetensiyalari, muloqot madaniyati, metodik yondashuvi va shaxsiy sifatlari har tomonlama tahlil qilinadi.

4. Maxfiy so‘rovnoma va fikr-mulohazalarni yig‘ish.

Maxfiy so‘rovnoma va fikr-mulohazalarni yig‘ish — pedagog faoliyatini 360 daraja tahlil qilishning muhim bosqichidir. Bu orqali pedagog o‘z faoliyati haqida mustaqil va xolis mulohazalarni turli manbalardan (MTT direktori, hamkasb, ota-ona, tarbiyalanuvchi) oladi.

Maxfiy so‘rovnoma va fikr-mulohazalarni yig‘ish jarayonni samarali tashkil etish uchun birinchi navbatda maqsadni aniqlash lozim, ya’ni so‘rovnoma orqali nimani o‘lchamoqchi ekanligini oldindan bilish muhim. Masalan: pedagogning muloqot madaniyati, o‘qitish sifati, hamkorlik darajasi, ota-onalar bilan ishlashdagi yondashuv yoki texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasi bo‘yicha ma’lumotlar olinadi. Buning uchun savollar tuzib olinadi, savollar oddiy, aniq va baholashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

So‘rovnoma olib borishda bir nechta baholash shakllaridan foydalanish mumkin:

1. Likert shkalasi (1 — mutlaqo rozi emasman, 5 — to‘liq rozi)
2. Tanlovli savollar
3. Ochiq savollar (fikr bildirish uchun)

№	**Savol**	**Baholash**				
		1	2	3	4	5
1	Pedagog bolalar bilan hurmatga asoslangan munosabatda bo‘ladi					
2	Ota-onalar bilan muntazam va mazmunli aloqa o‘rnatilgan					
3	Takliflaringiz yoki mulohazalaringiz bormi? (ochiq javob)					

Maxfiy so‘rovnoma va fikr-mulohazalarni yig‘ish jarayonida maxfiylikni ta'minlash o‘ta muhimdir. Odatda bunday so‘rovnomalar ism yozilmaydigan (anonim so‘rov), Google Forms, Microsoft Forms yoki qog‘ozli qutichalar orqali amalga oshiriladi.

Pedagoglarni yoshi kattalarga xos o‘quv ehtiyojlari, motivatsiyasi va tajribasi asosida sifatli kasbiy rivojlanishni amalga oshirishda samalali bo‘lgan quyidagi strategiyalarni keltiramiz:

Reflektiv strategiya

Reflektiv strategiya — pedagog o‘zini o‘zi rivojlantirishining asosiy va eng samarali yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu strategiya pedagogning o‘z faoliyatini

tahlil qilish, baholash va takomillashtirish orqali o‘z kasbiy o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Refleksiya — bu pedagogning o‘z o‘quv va tarbiyaviy faoliyati, qarorlar, xatti-harakatlar va ularning natijalari haqida fikr yuritish, tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayoni. Reflektiv strategiya esa bu refleksiyani doimiy amaliyotga aylantirish, ya’ni pedagog o‘z faoliyatiga har doim ongli yondashishini ta’minlaydigan usul va yondashuvlar to‘plamidir.

Reflektiv strategiya faoliyatdagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlash imkonini beradi, ta’lim va tarbiya jarayonini chuqur tahlil qilib, xatolardan saboq chiqarishga yordam beradi, kasbiy o‘sish uchun real asos yaratadi, o‘zgaruvchan ta’lim talablariga moslashish qobiliyatini oshiradi, shuningdek, innovatsiyalarni tanlashda ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Reflektiv strategiyani amalga oshirishda refleksiya qilishga vaqt ajratish va har haftalik yoki har mashg‘ulotdan keyingi yozma yoki og‘zaki tahlil; “Bugun nima yaxshi bo‘ldi? Nima ish bermadi? Nima o‘zgartiraman?” kabi savollar; refleksiya daftari / kundalik yuritish; har bir faoliyatdan keyin quyidagicha qisqacha yozib borish pedagoglarni o‘zini o‘zi rivojlantirib borishlariga yordam beradi:

- Tarbiyalanuvchilarning ishtiroki qanday bo‘ldi?
- Men qanday metod qo‘lladim?
- Ular qanday javob qaytardi?
- O‘zimni qanday his qildim?

Yana bir muvaffaqiyatli strateyiyaning ko‘rinishlaridan biri bu – reflektiv muloqot / maslahatlashuv strategiyasidir. Reflektiv muloqot — bu ikki yoki undan ortiq pedagog, rahbar yoki mutaxassislar o‘rtasida faoliyatni tahlil qilish, baholash va undan saboq olish maqsadida olib boriladigan fikr almashinuvi, maslahat va qo‘llab-quvvatlovchi suhbat.

Bu strategiya pedagogning o‘z ustida ishlashi jarayonida insoniy omil va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratadi.

Reflektiv strategiyaning muvaffaqiyatli hisoblanishiga quyidagilar sabab bo‘ladi:

№	Sabab	Izoh
1	O‘ziga chetdan qarash imkonini beradi	Pedagog o‘z faoliyatiga boshqa pedagog ko‘zi bilan qaraydi
2	Ishonchli fikr almashish imkonini yaratadi	Xolis fikr va maslahatlar o‘zgarishga turtki bo‘ladi
3	Muvaffaqiyat va xatolar ustida birga ishlash	Individual emas, jamoaviy rivojlanishga xizmat qiladi

4	Emotsional yengillik va ruhiy tayanch bo‘ladi	Kasbiy kuyishni kamaytiradi

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib xulosalaydigan bolsak, o‘quv ehtiyojlari va motivatsiya pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashda muhim omillardir. Pedagoglar o‘z ehtiyojlarini aniqlash va motivatsiyalarini oshirish orqali o‘z kasbiy faoliyatlarini yanada samarali amalga oshirishlari mumkin.

O‘zbekiston ta’lim tizimida pedagoglarning o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini oshirish, amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish va zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llash orqali pedagoglarning muvaffaqiyatini ta’minlash mumkin.

Yoshi kattalar bilan ishlashda samarali strategiyalarni qo‘llash, pedagoglarga o‘z pedagogik faoliyatlarini yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. O‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, hamkorlik va guruh ishlari, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va o‘z-o‘zini baholash imkoniyatlarini yaratish, yoshi kattalar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega. Bu strategiyalar, o‘z navbatida, ta’lim tizimining sifatini yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 231-son qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 867-son qarori
3. Knowles. M. S. (1984). *The Adult Learner: A Neglected Species*. Houston: Gulf Publishing Company.
4. Балева В.В. Профессиональное развитие педагога в рамках непрерывного образования // Международный журнал социальных и гуманитарных наук. - 2016. - Т. 2. - №1. -С. 58-65.
5. Isxakova M.R. Pedagog kadrlarni rivojlantirishda andragogik yondashuv/ O‘quv qo‘llanma/ Toshkent 2022, 72 bet
6. Isxakova M.R. Andragoglik ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish. Maxsus kurs dasturi (Trener kitobi, mustaqil mutoala materiallari, tarqatma materiallar jamlanmasi)/ Toshkent 2021
7. Isxakova M.R. “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetensiyasi va kreativligini oshirish” qisqa muddatli o‘quv kursi (MTT

pedagoglari uchun)/ “Interfaol texnologiyalar orqali kasbiy kompetentlikni oshirish” mavzusi bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmuasi/ Toshkent 2021
8. https://onlinedu.uz/
9. https://www.oecd.org/
10. http://www.gov.uz
11. https://www.uzedu.uz/
12. https://www.bimm.uz/ru
13. http://ziyonet.uz/ru